

## **“TBC Bank” ATBning “Yozgi o‘yin” dasturini o‘tkazish qoidalarini**

### **MUNDARIJA**

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

### **1. UMUMIY SHARTLAR.**

- 1.1. Mazkur “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “Yozgi o‘yin” dasturining Qoidalarini (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.
- 1.2. Ushbu Dastur Qoidalarini lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.
- 1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - [www.tcbank.uz](http://www.tcbank.uz).
- 1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2024 yil 24 may; Dasturning tugash sanasi: 2024 yil 30 iyun, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab Tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida, shu jumladan.
- 1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 1.6. Dasturning Tugash sanasidan oldin yangi onlayn Mikroqarz yoki istalgan summada qo‘shimcha kreditni muvaffaqiyat bilan olgan istalgan verikatsiyadan o‘tgan Bank Mijoz Dastur ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.
- 1.7. Bank xizmatlari va mahsulotlarini olish va ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bankning Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish uchun mavjud bo‘lgan Bank mahsulotlari bo‘yicha boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 1.8. Bank mijoz Dasturning amal qilish muddati davomida TBC UZ va Payme mobil ilovasidagi “Kredit olish” tugmasini bosish orqali ushbu Dastur shartlari va qoidalarini avtomatik ravishda qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

### **2. ATAMA VA TA’RIFLAR**

<b>Bank</b>	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
<b>Dastur</b>	“TBC Bank” ATBning “Yozgi o‘yin” dasturi
<b>Bankning Mijoz</b>	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs

<b>Ishtirokchi</b>	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq kelgan Bankning Mijozi.
<b>Ilova</b>	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
<b>Kredit</b>	Bank mahsuloti – “TBC Bank” ATB online Mikroqarz shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan taqdim etiladigan onlayn mikroqarz.

### 3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: [contact@tcbank.uz](mailto:contact@tcbank.uz)

### 4. DASTURDA ISHTIROK ETISH VA SOVRINLAR O'YNALISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozi ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. Dasturning har bir ishtirokchisiga 50 (ellik) Sovrindan iborat tasodifiy o'yinda bitta imkoniyat beriladi:

Sovrin nomi	Soni
2 kishilik Turkiyaga sayohat	2 dona
Apple iPhone 15 Pro	10
Samsung Smart TV 43''	20
10 000 000 (o'n million) so'mlik pul mukofoti	18

- 4.3. Sovrinlar o'yinlari 2024-yil 14-iyun va 5-iyul kunlari Dastur ishtirokchilari o'rtasida o'tkaziladi. Sovrinlar o'yinlarining har bir keyingi bosqichida imkoniyatlar avvalgi bosqichlar g'oliblarini hisobga olmagan holda yangidan ishga tushiriladi.
- 4.4. G'oliblar tasodifiy raqamlar generatori (Randomizer) tomonidan aniqlanadi. Har bir o'yinda 25 (yigirma besh) tadan g'olib aniqlanadi. G'oliblarning umumiy soni 50 (ellik) ga teng bo'ladi.
- 4.5. O'yin mazkur Qoidalarga muvofiq ishtirokchiga aylangan barcha mijozlarning imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. O'yin g'oliblari o'yinning keyingi bosqichlarida qatnashmaydi.
- 4.6. Agar Ishtirokchi o'yinda g'olib bo'lsa, Bank naqd pulsiz yutuqni oxirgi o'yin o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida topshiradi. Pul yutug'i ham Bank tomonidan Bankning kartasiga yoki Bankdagi joriy hisob raqamiga oxirgi o'yin o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida to'lanadi.
- 4.7. Bank tomonidan yutuq topshirilishiga tayyorligi to'g'risida e'lon qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida G'olib tomonidan yutuq olmagan yoki olishdan bosh tortgan taqdirda, yutuq bekor qilinadi.
- 4.8. Naqd pulsiz sovrinlarni naqd pul ekvivalentlariga almashtirish mumkin emas, "Sayohat" toifasidagi sovrinlar bundan mustasno. Sayohatni 10 000 000 (o'n) million so'm miqdoridagi pul mukofotiga almashtirish mumkin.
- 4.9. Yutuq ilovaning tegishli bo'limida ko'rsatilgandan keyin / pul yutug'ini joriy hisob raqamiga yoki ishtirokchining kartasiga o'tkazgandan so'ng / yutuqni natura shaklida topshirish uchun qabul qilish dalolatnomasini imzolagandan keyin Sovrinlarni topshirish shartlari Bank tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi.

## 5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
  - Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;
  - ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;
- 5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomat ravishda Bank Mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to'liq roziligini bildiradi.
- 5.3. Ishtirokchi Dastur hamkorlarining xizmatlaridan foydalanish qoidalari va shartlari bilan tanishishi va ularga rioya qilishi shart.
- 5.4. Ushbu Dasturda ishtirok etish va ushbu Qoidalarga rozilik bildirish orqali aksiya ishtirokchisi sovrinlarni topshirish vaqtida olingan fotosuratini axborot kommunikatsiya kanallarida joylashtirishga roziligini beradi.

## 6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

- 6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o'tkazishi, shuningdek, o'yinda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etishi hamda Qoidalarga muvofiq Sovrin o'ynalishi bo'yicha majburiyatlarini bajarishi shart.
- 6.2. Ushbu Dastur Qoidalarning 1.4-bandiga muvofiq Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.
- 6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.
- 6.4. Bank bir tomonlama tartibda o'yin shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz sovrinni olish uchun talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank Mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.  
Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilishi; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki chegirmaga ega bo'lishini taqiqlashi; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklashi; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
  - (i) bir nechta hisobvaraqlar ochish;
  - (ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
  - (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarining har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;

(iv) hisobvaraqlarning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

## **7. JAVOBGARLIK.**

- 7.1. Bankning ishtirok etish imkoniyatini berish majburiyati Mijozga yangi Kredit taqdim etilgan vaqtda hamda o'yin bo'yicha ushbu o'yin o'tkazilgandan so'ng va Bankning aloqa kanallarida o'yin natijalari e'lon qilinganidan keyin bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.
- 7.3. Bank Sayohatlar vaqtida sodir bo'lgan hodisalar uchun javobgar emas. Sayohatdan foydalanishning barcha shartlari va qoidalari ko'rib chiqish uchun mavjud, shuningdek, nizolar turoperator bilan hal qilinadi.
- 7.4. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.5. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.
- 7.6. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozlari o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

## **8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.**

- 8.1. Ushbu Qoidalar kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.
- 8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

## **9. BOSHQA SHARTLAR**

- 9.1. Ushbu Qoidalar 24.05.2024 yildan kuchga kiradi va 30.06.2024 yilgacha amal qiladi.
- 9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - [www.tcbank.uz](http://www.tcbank.uz).
- 9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqorida ko'rsatilgan havola yordamida) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 9.4. Bank Mijozlari TBC UZ mobil ilovasining "Mulohazalar" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.
- 9.5. Bank xodimlari, Bank affilangan shaxslarining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda ishtirok etish huquqiga ega emas.